

**U. HAMDAMNING “TO’RTKO’CHA” ROMANIDAGI
VOQEALARIDA AKS ETGAN TERAN MA’NOLAR TAHLILI**

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

Fizika fakulteti fizika yo‘nalishi 3- bosqich talabasi

Tohirova Rumayso Furqat qizi

miraculossakura@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri bo‘lgan Ulug‘bek Hamdamning “To‘rtko‘cha” romanidagi voqealar, qaxramonlarning g‘oyaviy badiiy tahlili bilan bir qatorda bugungi kundagi ahamiyati atroflicha tahlil qilinadi.

KALIT SO‘ZLAR: O‘lmas, O‘ktam, O‘g‘iloy, Zafar, Piri komil, Ochil, muhabbat va sadoqat, Mustaqillik, Grin kard, to‘rtko‘chani iymon e‘tiqod din, maishiy turmush, oila, ilm ma‘rifat, moddiyat

KIRISH.

Har bir o‘tgan kun bir kun kelib tarixga aylanadi. Tarix kelajak avlodlarga saboq bo‘lsagina uning qiymati yuqori bo‘ladi. Ko‘chaning boshiga turgan inson harakat qilishdan avval ortga qarab o‘tmish ajdodlarning bosgan iziga qarab xulosa chiqaradi. Bu xulosalar tarixni takrorlamaslik va xatolardan saboq olishga undaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODIKASI.

O‘zbek adabiyotining yirik vakili, xalqiga hamdam yozuvchi Ulug‘bek Hamdam o‘z ijodidagi yangi asari orqali huddi shunday yaqin tarix voqealarini yoritish orqali o‘qirmanlarni mushohadaga chorladi. Uning “To‘rtko‘cha” romani O‘zbekistonning mustaqil bo‘lganidan dastlabki 25 yillik tarixni o‘z ichiga qamrab oladi. Bu davr haqida yirik asar yozishga hali hech bir yozuvchi jur‘at etmagan edi. Ulug‘bek Hamdam katta jasorat bilan shunday yirik asarni kitobxonlar e‘tiboriga havola etdi. Ushbu asar alohida

tahlilni talab etadi. Chunki bu davr haqida ko'p fikr bildirilgan bo'lsada asarlar kam yozilgani uchun adabiyotshunoslar tomonidan tahlillar kam uchraydi. Asarni avtobiografik esse roman desak to'g'riroq bo'ladi. Chunki garchi ismlar o'zgartirilgan, badiiy to'qimalar qo'shilgan bo'lsada, bu asosan muallifni boshidan o'tgan o'zi guvoh bo'lgan voqealarni aksi hisoblanadi. Kitob tili sodda, ravon va o'qishli bo'lib, har qanday o'quvchi o'qib tushuna oladi. Asardagi suhbatlar, ichki o'ylar va tasvirlarning hayotiyligi e'tiborni tortadi. Yozuvchi hayoti davomida turli davrlarda boshidan o'tgan, ko'rgan-kechirgan, guvohi bo'lgan voqealar, anglagan hayotiy falsafalar, ba'zan xayoliy haqiqatlarini asarda to'plagan.

Asarda O'lmas, O'ktam, O'g'iloy, Zafar, Piri komil, Ochil va boshqa bir qator obrazlar tabiati va taqdiri juda ta'sirli tasvirlangan. Jamiyat va shaxs, ijtimoiy-siyosiy tuzum va alohida odam munosabatlari muayyan insonlar taqdiri misolida haqqoniy ko'rsatilgan.. Romanda SSSR davrida ishga borib, maoshini olib, oilasi bilan kunini to'qlikda va halovatda o'tkazayotgan, ertangi kunga umid bilan yashayotgan o'zbek xalqining istiqloldan keyingi hayoti aks etgan. Birdaniga hamma narsa izdan chiqib, odamlar ishsizlik, pulsizlik va chorasizlikda qolib ketadi. Yurtda korrupsiyaning avj olishi, poraxo'rlik, davlatning madaniy va tarixiy merosini yashirin yo'llar bilan pullash, sudxo'rlikning avj olishi, insonlarning haq-huquqi poymol bo'lishi va natijada umidsiz hamda orzusiz kishilarning ko'payishini asar qahramoni O'lmasning nigohi ila ko'ramiz. Sobiq ittifoq davrida markazlashgan iqtisodiy tizimga moslashgan ishlab chiqarish tarmoqlarining izdan chiqishi, yangi bozor munosabatlariga o'tish jarayoni va iqtisodiy inqiroz natijasida aholi turmush darajasi sezilarli darajada pasaydi. Natijada ishsizlikning ortishi, oyliklarning vaqtida berilmasligi va aholining bir qismi uchun turmush sharoitining og'irlashuvi kuzatildi. Turmush darajasining pasayishi aholining kundalik ehtiyojlarini qondirishni qiyinlashtirgan. Ayrim oilalar qo'shimcha daromad topish maqsadida turli norasmiy ishlar bilan shug'ullanishga majbur

bo'lgan. Buning oqibatida esa ular butun dunyo bo'ylab mardikorga aylanib ketadi. Asardagi O'lmasning qishloqdoshi, matematika o'qituvchisi Rahmatjon aka maktabda o'zi ozgina bo'lgan maoshi ham vaqtida berilmay, yarim yillab kutib, qarzga botib, axiyri chida olmay ishlash uchun chetga ketadi. Qarzlaridan qutulib, bola-chaqani oyoqqa qo'yaman deb ketgan Rahmatjon akaning Rossiyaga ketganiga bir yil bo'lganda o'pkasini sovuq urib, tobutda o'ligi keladi. Bu o'sha davr fojeasiga yaqqol misol bo'la oladi.

Mustaqillikning ilk yillarida jamiyatimizning eng og'riqli muammolaridan biri – poraxo'rlikdir. Poraxo'rlik kechagi, qolaversa bugungi kunning ham dolzarb muammosi hisoblanadi. Bu illat nafaqat iqtisodiy taraqqiyotga, balki jamiyatdagi adolat va ishonch muhitiga ham jiddiy zarar yetkazadi. Afsuski, poraxo'rlik eng asosiy ustun bo'lgan ta'limda ham uchrab turadi. Masalan, ba'zi odamlar o'qishga kirish, mukofot yoki rag'bat olish kabi jarayonlarda bilim va mehnatga emas, tanish-bilish va pulga tayanishga harakat qilishadi. Oqibatda O'lmasning professor olim ustoziday haqiqatparvar fidoiy inson adolatsizni boshdan kechirib jamiyatdan chetga chiqib qoladi. Butun umr to'g'ri deyilgan yo'ldan yurgan, kun kelib zamon almashganda: —Siz bizga kerak emassiz, endi siz bilgan bilim chiqit, siz yurgan yo'l xato! Siz kechagi kun odamisiz, endi yangi tong otdi, ariza yozing endi yoshlar ishlasin, deya ishdan olishadi. Eng ta'sirlisi bunday haqsizlikni ko'tarolmagan professor kitoblarni derazadan pastga otadi. Bundan anglash mumkinki, ilm xor qilingan jamiyatda shunday illatlar urchiyveradi.

Ulug'bek Hamdamning "To'rtko'cha" romanini mazmun jihatdan tahlil etganda, eng avvalo uning markazida inson taqdiri, shaxsning tanlovi va zamon bilan munosabati turishi namoyon bo'ladi. Asarning nomidanoq chorraha timsoli inson hayotidagi burilish nuqtalari, har bir yo'lning o'z taqdirini belgilashi, har bir qarorning yangi sinovlarga olib borishi haqidagi umumiy falsafani ifoda etadi. Demak, romanning asosiy mavzusi inson hayotidagi tanlov va mas'uliyat masalasidir.

Asarning yana bir muhim mavzusi – muhabbat va sadoqatdir. Qahramonlar o'rtasidagi munosabatlar oddiy his-tuyg'ular sifatida emas, balki hayotiy yo'l tanlashda hal qiluvchi omil sifatida tasvirlangan. Muhabbat insonni kuchli ham, zaif ham qiladi. U bir vaqtning o'zida umid manbai va og'riq sababchisiga aylanishi mumkin. Muallif ana shu ikki qarama-qarshi holatni yuksak badiiy mahorat bilan ifoda etib, o'quvchini inson qalbi chuqurliklariga nazar tashlashga chorlaydi. Romanda milliy va ma'naviy qadriyatlar ham asosiy o'rinda turadi. Muallif qahramonlar taqdiri orqali milliy ongning uyg'onishi, o'tmish merosiga munosabat, zamon bilan hamqadam bo'lish, shu bilan birga o'zlikni yo'qotmaslik kabi masalalarni ko'targan. "To'rtko'cha"da jamiyatda kechayotgan islohotlar, yangi sharoitlarga moslashish jarayonlari, insonlarning qadriyatlar bilan bo'lgan munosabatlari keng qamrovli tarzda aks etgan

Mustaqillikning ilk yillarida jamiyat oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – yangicha tafakkur va tizimni shakllantirish edi. Shu bois —eskilikdan voz kechish g'oyasi ilgari surildi. Biroq har qanday yangi narsa ham eskining poydevoriga quriladi. Davlat rahbari ham eskisini buzmay yangisi qurmaymiz deya dav'at etib turganda eski davr kishilarini chetlatilishi qoralanadi. Eski an'analar chetga surila boshlagach, orzu-maqсадlar va idealar ham maydalashadi. "Nazarimda zamondoshlarimizning ko'pchiligi tuzukroq orzu qilishni ham bilmaydi hozir. Ideallar haqida esa tasavvurga ham ega emas" deyiladi asarda qaxramon tilidan. Orzu maqsadlari bo'lmagan xalq bekorchiga aylangan-qolgan. Bekorchilik esa qashshoqlikni yetaklab kelgan. Qashshoqlik o'z navbatida tafakkurdagi qoloqlikni paydo qilgan. Qoloqlik bor joyda esa haqiqiy din qolib, nosog'lom din, sekta ko'payadi. Aynan shu kabi illatlar o'z davrida katta muammo sifatida qaralgan.

Bugun jamiyatimizda tobora kuchayib borayotgan bir jarayon bor: grin karta orzusi. Bu oddiygina hujjat emas, balki ko'pchilik yoshlar uchun yaxshi hayot timsoliga aylangan. "Ayniqsa Amerika Qo'shma Shtatlari sari intilish,

pul topish, sharoitini yaxshilash, tezroq odam bo'lis istagi bilan izohlanmoqda. O'lmasning o'g'li Erkin ham shuni xohlovchilardan biri edi. Masala Amerikaga borishda emas. Masala — qanday maqsad bilan borishda. Agar inson bilim olish, tajriba orttirish, o'zini rivojlantirish uchun borsa, u holda bu yo'l foydali bo'lishi mumkin. Inson, avvalo, o'z yurtiga, millatiga xizmat qilishi kerak. Buni eplagandan keyin, mayli odamzot koriga yarasin” deya muallif bejizga bu gaplarni aytmaydi. Mingtadan bittaga chiqadigan bu yutuq Erkinga chiqqanda uni rad qildi, o'z Vatanida qolishni xohladi. Bu hodisa esa O'lmasda yurt kelajagiga chinakam ishonchni uyg'otdi. Muallif esa xalqning har bir insonida shunday vatanparvarlik tuyg'usini uyg'otmoqchi bo'ladi. Asar inson hayotidagi burilish nuqtalari, yo'l tanlash, mas'uliyat va taqdirning ramzi sifatida talqin qilinadi. Jamiyatdagi ziddiyatlar, inson ma'naviy tanlovlari, ichki iztiroblar o'ziga xos ramzlar orqali talqin qilingan. Asarda chorraha timsoli inson hayotidagi tanlovni anglatishi bilan birga, butun jamiyat oldida turgan mas'uliyatli qarorlarning ham ramzi sifatida namoyon bo'ladi. Bu to'rtko'chani iymon e'tiqod din, maishiy turmush, oila, ilm ma'rifat, moddiyat deb to'rtta ko'chaga bo'lib oladigan bo'lsak, bu ko'chalarninh eng mo'rt zaifi moddiyat ko'chasi hisoblanadi. U qanchalik boshida kuchli yorqin ko'rinsada yo'l oxirida bari sarob ekanini anglaydi.

XULOSA.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, inson dunyoga kelgandan keyin taqdir bilan bir qatorda tanlov ixtiyori mavjud narsalar ham bo'ladi. Ana shu tanlovi uchun vijdoni oldida hamma javob beradi. Tanlovni to'g'ri qilish uchun to'rtko'chaning boshida mushohada qilish zarur hisoblanadi. Mushohada insonni ezgu ko'chalarga chorlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. G. Xalilova. To'rtko'cha romanining avtobiografik xususiyatlari. Til va adabiyot.uz 2025-10-son.

2. U. Hamdam. To‘rtko‘cha. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2024
3. Nazarov, Q. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Fan, 2004.
4. Hamidov, A. Zamonaviy o‘zbek adabiyoti: tendensiyalar va yo‘nalishlar. – Toshkent: Universitet, 2020.
6. Sharafiddinov, O. Adabiyot – hayot ko‘zgusi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1985.
7. Saidov, Sh. XXI asr o‘zbek romanchiligida badiiy izlanishlar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021.
8. Qosimov, B. Milliy uyg‘onish va adabiyot. – Toshkent: Universitet, 2010.